OLIY TA’LIM JARAYONIDA INTERFAOL METODLARNI QO‘LLASH TA’LIM MAZMUNINING TARKIBIY QISMIDIR

Madumarov Rauf Rafiqovich

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda oliy ta’lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llash, pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar ta’lim oluvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydigan masalalar haqidagi mulohazalar tahliliga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion texnologiyalar, interaktiv metodlar, pedagogik texnologiyalar, AKT vositalari, axborot texnologiyalari.

Hozirgi kunda oliy ta‘lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e‘tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablari, shu vaqtgacha an‘anaviy ta‘limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. Ta‘lim beruvchi pedagoglar esa bu jarayonda ta’lim oluvchining ruhiy rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchanlik, kreativ salohiyatini rivojlantirish vazifalarini bajaradi [1]. Ta‘lim jarayonida talabalar asosiy subyektga aylanadi. Shuning uchun oliy ta‘lim muassasalarida malakali kadrlarni tayyorlashda zamonaviy o‘qitish metodlari – interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va roli kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar ta‘lim oluvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta‘minlaydi [2]. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda ta‘lim beruvchi va ta‘lim oluvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish hisoblanib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to‘liq foydalaniladi. Interfaol metodlar – bu jamoa bo‘lib fikrlash deb yuritiladi, ya‘ni pedagogik ta‘sir etish usullari bo‘lib, ta‘lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi [3]. Bu metodlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va ta‘lim oluvchilarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

talabani mashg‘ulot davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;

ta’lim oluvchini o‘quv jarayonida bilimga bo‘lgan qiziqishlarining doimiy ravishda bo‘lishini ta‘minlashi;

o‘quvchining bilimga bo‘lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;

pedagog va ta‘lim oluvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatining tashkil etilishi. Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o‘rganayotgan ta‘lim beruvchilar, ilmiy- tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya – bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog’liq hamda o‘qitish jarayonida qo‘llanishi zarur bo‘lgan AKT, kompyuter, masofali o‘qish, yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi.

Bugungi kunda Oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislik fanlaridan muammoli o‘qitish jarayonida talabaning mustaqillik roli reproduktiv o‘quv usullariga solishtirib qaraganda ancha samarali bo‘ladi. Muammoli ta’limning maqsadi ham ular bilan ishlash jarayonida ta’lim-tarbiya masalalari, yuzaga kelgan muammo va savollariga javob qidirish, ularni hal etish yo‘llari bilan yangi bilimlarni o‘zlashtirishni, talabalar o‘quv faoliyatida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish va hal etish bo‘yicha professor-o‘qituvchilar ularda qiziqish uyg‘ota olishidan iborat [4].

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi - bu ta‘lim beruvchi va ta‘lim oluvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari tanlagan texnologiyalariga bog’liqligidadir, ya‘ni o‘qitish jarayonida, maqsad bo‘yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo‘llaniladigan har bir ta‘lim texnologiyasi ta‘lim beruvchi va ta‘lim oluvchi o‘rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o‘quv jarayonida ta‘lim oluvchilar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o‘zlari xulosa qila olsalar, o‘zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, ta‘lim beruvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, anashular o‘qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir mashg’ulot, mavzu, o‘quv predmetining o‘ziga xos texnologiyasi bor, ya‘ni o‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu yakka tartibdagi jarayon bo‘lib, u ta‘lim oluvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. Ta‘lim beruvchi va ta‘lim oluvchining maqsadi natijaga erishishda qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda ta‘lim oluvchilarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi [5]. Shu bilan bir qatorda, o‘qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda ta‘lim beruvchi o‘quv predmetining o‘ziga xos tomonini, mavjud moddiy va ma‘naviy shart-sharoitlarni, AKT vositalarini, eng asosiysi, ta‘lim oluvchilarning imkoniyat va ehtiyojini hamda ularning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olish qobiliyatlarini hisobga olishi kerak. Shundagina kerakli va kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, ta‘lim oluvchini ta‘limning markaziga olib chiqish kerak. Ta‘lim beruvchi tomonidan har bir

mashg’ulotni yaxlit holatda ko‘ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo‘lajak mashg’ulot jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda ta‘lim beruvchiga u tomonidan bo‘lajak mashg’ulotning texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki mashg’ulotning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir mashg’ulot uchun o‘qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, ta‘lim oluvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi [6]. Bunday texnologik xaritani tuzish oson emas, chunki buning uchun ta‘lim beruvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor bo‘lishi, shuningdek, juda ko‘p metod va usullarni bilish kerak bo‘ladi. Har bir mashg’ulotning rang-barang, qiziqarli bo‘lishi avvaldan puxta o‘ylab tuzilgan mashg’ulotning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog’liq [7]. Ayniqsa, oliy ta‘lim muassasalarida mashg’ulotni loyihalash va yangi pedagogik texnologiyalar bilan olib borish juda ham muhim, negaki, talaba o‘z kasbining mahoratli egasi bo‘lishi ko‘p jihatdan ularga saboq berayotgan pedagoglar bilimi va malakasiga ham bog’liqdir. Jumladan:

1. Oliy ta’lim muassasalarida o‘qitish jarayonida bilim va tafakkurni samarali, maqsadga muvofiq bo‘lishi uchun uni o‘quv jarayoni, o‘quv-tarbiya ishlari asosining bir qismiga aylantirish zarur. Muammoli ta’lim yordamida esa bo‘lajak malakali kadrlarini tayyorlashda o‘quv muammolari va mutaxassislik masalalarini yechishga tanqidiy yondashish, tafakkurini rivojlantirish, mustaqil tarzda o‘rganish mahoratini shakllantirishni tarbiyalaydi.

3. Innovatsion yondashuvlar asosidagi ta’lim talabalar bilim tizimlari va aqliy hamda amaliy faoliyatlarida samarali o‘zlashtirishga, tafakkurini shakllantirishga yordam beradi, o‘zlashtirgan yangi bilimlaridan kelajakdagi faoliyatlarida unumli foydalana olishni, xizmat jarayonlarida muammolarini yecha bilish, mustaqil izlanishga o‘rgatish, ijodiy tajribaga ega bo‘lish va uni rivojlantirish, ish jarayonining vazifalarini tahlil qilish, faoliyatdagi muammolarni aniqlash imkoniyatlarini ochib beradi[8].

Хулоса

Innovatsion yondashuvlar asosida oliy ta’lim muassasalarida kadrlarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish orqali o‘quv jarayonida talabalarning tafakkurini shakllantirishga yo‘naltirilgan ana shunday o‘qitish ularga o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun yordam beradi. Bunday holatda ta’lim olish talabalar tomonidan erishish lozim bo‘lgan maqsad deb emas, balki o‘z shaxsini rivojlantirish vositasi deb qabul qilinadi va so‘zsiz mashg‘ulotlar o‘tish jarayonida ularning ta’lim olishga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri / Abu Nasr Forobiy. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti 1993.-254б.

2. Forobiy. Baxt-saodatga erishuv haqida /. Forobiy. Risolalar. – T: Fan, 1975.-236 б.
3. Xayrullayev M. Forobiy ruhiy protsesslar va ta’lim -tarbiya to‘g‘risida / M.Xayrullayev. – T.: O‘qituvchi, 1967.-256 б.
4. Ишмуҳамедов Р., Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар/ Р. Ишмухаммедов, М.Юлдашев.-Т.: “Ниҳол” нашриёти, 2013. -419 б.
5. Йўлдошев Ж., Усмонов С. Педагогик технология асослари / Ж.Йўлдошев.-Т.: “Ўқитувчи”, 2004. -289 б
6. Саъдиев Ш. Собиров Ю. Олим ва муаллимлар / Ш.Саъдиев, Ю.Т.Собиров .: “Шарқ”,2017. – 231 б
7. Ибрагимова Г. Н, Интерфаол услублар тўплами / Г.Н.Ибрагимов. Низомий номидаги ТДПУ нашри. 2019.
8. Коменский Я.А. Дидактика / Я.А. Коменский. - Минск .: “Школа”, 2017. -269 б